

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

M.B.Tursunova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasini o‘qituvchisi

Saidova Farangiz Ne'matjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6588376>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlod ongi, tasavvuri va tafakkuriga singdirilgan milliy g‘oya har qanday yot g‘oyalarning ta’siridan uzoq bo‘lishni ta’minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytara olish ko‘nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga, hurmat qilishga undaydi. Ayni damda globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan biri bo‘lmish ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta’siri nuqtai nazaridan olib qarasak, yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy barkamolligini shakllantirish, aqlan barkamol, ma’nab yetuk shaxslarni yetishtirish birmuncha mas’uliyatli va jiddiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: milliy g‘oya, milliy qadriyat, globallashuv, ommaviy madaniyat, barkamol inson, mustaqillik, madaniyat, urf-odat, millat, an’ana , tarbiya, ta’lim.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. Национальная идея, внедренная в сознание, воображение и мышление подрастающего поколения, не только обеспечивает его свободу от влияния каких-либо чуждых идей, но и развивает способность откликаться на них, побуждает к сохранению и уважению нашего национального ценности. С точки зрения влияния массовой культуры на сознание молодежи, что является одним из негативных последствий глобализации, важно воспитание нашей молодежи в духе преданности национальным ценностям, формирование ее духовной зрелости, умственно зрелых, духовно зрелых людей, и остается серьезной задачей.

Ключевые слова: национальная идея, национальная ценность, глобализация, массовая культура, совершенный человек, независимость, культура, обычай, просвещение, нация, традиция, воспитание, образование.

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. The national ideology embedded in the imagination and thinking of the younger generation not only ensures that it is free from the influence of any foreign ideas, but also develops the ability to respond to them, and encourages the preservation and respect of our national values. At the same time, from the point of view of the impact of popular culture on the minds of youth, which is one of the negative consequences of globalization, forming their spiritual perfection, to cultivating mentally mature and spiritually mature individuals remains a responsible and serious task to cultivate harmoniously mature people.

Keywords: national idea, national value, globalization, popular culture, perfect man, independence, culture, tradition, nationality, tradition, upbringing, education.

Avvalo, mustaqillik bizga o‘z taqdirimiz va hayotimizga egalik qilish huquqini berdi. Bu esa o‘z kelajagimizning bunyodkori o‘zimiz deganidir. Barchamizga ma’lumki, mustaqillikdek oliy ne’matga erishganimizdan so‘ng, muqaddas an’ana va milliy qadriyatlarimizga tayanib

yashay olish huquqiga ham erishdik. Mustaqillikdan oldin bo‘lsa, o‘zligimizni anglashimiz bilan bir qatorda an’ana va qadriyatlar asosida hayot kechirishimizga yo‘l qo‘yilmagan, vaholanki milliy urf-odat va an’analarsiz millat – millat bo‘lmaydi. O‘sha davrlarda Navro‘z, ramazon, qurbon hayiti va boshqa shu kabi bir qator muqaddas sanalgan milliy bayramlarimiz ta’qiqlangan edi. O‘tmishimiz tarixini, shuningdek, unda o‘tgan Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Bahouddin Naqshband, Najmuddin Kubro, Amir Temur kabi buyuk bobokalonlarimiz, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi jadidchilarimizning nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga, umuman olganda “Tarixi bo‘lmagan xalqning, kelajagi ham bo‘lmaydi” degan fikr asosida o‘zbek millati o‘tmishini tarix zarvaraqlaridan butunlay o‘chirib tashlashga harakat qilinari edi.

Har qanday davlat birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati hamda ma’naviyati bilan kuchlidir. Bunda qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarmizni o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirish, ularni milliy ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytib o‘tish joizki, mustaqillikdan keyin bir qator bayramlarni nishonlash yurtimizda an’anaga aylanishi millatimiz tarixida yangi davrning boshlanishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanishdir. Ayni paytda, yurtimizda ma’nан yetuk hamda barkamol bo‘lgan shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu xususda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariiga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko‘p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlарimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”, - degan jumlalarini keltirib o‘tishimiz o‘rinli deb o‘ylayman. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyat va an’analarning ahamiyati katta bo‘lib, ular tarbiya jarayonida eng ta’sirchan qurol vazifasini bajaradi desak noo‘rin bo‘lmaydi.

Bilamizki, jamiyat yoshlар ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmasdan yoxud mustahkamlamasdan turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi, shuningdek har bir davlat o‘sib kelayotgan kelajak avlodni o‘z milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari negizida tarbiyalashi uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ya’ni mustaqillikka erishgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning: “Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg‘ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o‘zida mujassam etadigan ma’naviyatni yuksaltirish asosiy va ustuvor vazifalardan biriga aylandi”[1,306] - degan jumlalaridan kelib chiqib, bizning maqsadimiz mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Mustaqillik bo‘lsa ana shu maqsadimizni amalga oshirishimizning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ijtiomiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, milliy o‘zlikni anglash bo‘yicha so‘ralgan 46,6 foiz yoshlар xalqning urf - odatlari va an’analariiga, 28,9 foizi O‘zbekistonning milliy mustaqilligiga, 28,4 foizi o‘z xalqining boy tarixiga, 21,7 foizi ona tili va milliy

madaniyatiga, 19,5 foizi o‘z millatining ma’naviy o‘ziga xosligi, 16,6 foizi o‘tmish avlodlarning buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ega ekanini bildirishgan. Bundan shuni anglash mumkinki, O‘zbekiston yoshlari o‘z xalqining tarixi va an’analari, milliy madaniyati, avlodlar o‘rtasidagi aloqa, o‘zlikni anglash va o‘ziga xoslikni muhim omil sifatida baholaydi.

Hozirgi kunda dunyoda globallashuv jarayonining tezlashishi hisobiga dunyo xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ham ortib bormoqda. Tabiiyki, O‘zbekiston ham bundan chetda turgani yo‘q va bu holat yoshlarimiz tarbiyasiga, fikrlashiga umuman hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Hammaga ayonki, biz axborot texnologiyalari davrida yashayapmiz va doimiy tarzda internetdan, axborot tizimlaridan foydalanamiz, turli xil ko‘rsatuv, reklama va kinolar tomosha qilamiz. Buning natijasida ma’naviy hayotimizga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli qadriyatlarning hayotimizga, turmush tarzimizga kirib kelishiga o‘zimiz imkon beramiz, o‘zimiz sharoit yaratamiz. Mustaqilligimiz sharofati bilan qadriyatlarni qayta tiklash jarayonini amalga oshirayotganimizda o‘zga millat urf-odatlari, an’analari va kiyinish madaniyatini qabul qilishga intilish, boy milliy ma’naviyatimizga salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bu holatda albatta o‘sib kelayotgan yosh avlodga qadriyatlarni bir-biridan farqlash, internet tarmoqlaridan aql bilan foydalanish kabi holatlar bo‘yicha tushunchalar berilgan bo‘lishi kerak. Zero, yoshlarimiz globallashuv jarayonida kechayotgan voqeа hodisalarini to‘g‘ri talqin qila olishi, ularga to‘g‘ri munosabat bildira olishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida milliy-ozodlik harakati fidoyilari safida faol harakat qilgan Abdulla Avloniy bobomizning: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[2,39], - degan jumlalarini keltirib o‘tishni joiz deb topdim. Darhaqiqat, bola yosh nihol va qayoqqa egsa shu tomonga qarab o‘saveradi. Yoshlarimizga berilgan, berilayotgan va beriladigan tarbiya yurtimiz kelajagi hamda taqdirini belgilab beradi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. “Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. 7-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. 306-bet.
2. ”Barkamol avlod orzusi“. T.: “Sharq”, 2019. 39-bet.